



DUTOR – MARKAZIY OSIYODA TARQALGAN AN’ANAVIY IKKI TORLI MUSIQA ASBOBI.

Ro'ziyeva Zilola Yeshpo'lot qizi¹

¹Buxoro davlat Pedagogika instituti
II-bosqich magistranti

Kambarova Maxfuza Botirovna²

²Buxoro davlat Pedagogika instituti
II-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7364065>

ARTICLE INFO

Received: 10th November 2022

Accepted: 16th November 2022

Online: 26th November 2022

KEY WORDS

Musiqa, meros, tarix, risola,
an'ana, san'at, manbaa,
mumtoz, shashmaqom, tarix.

ABSTRACT

Musiqa – ruhiyat beshigi. Bu beshik shu qadar sehrlik, uning og'ushidan-da orombaxshroq dunyoni topib bo'lmaydi. Shuning uchun inson, har qanday iztirobli damlarda ham, baxtiyor daqiqalarda ham yurakni zirqiratayotgan yoki hayajondan tobora toshib ketayotgan hislarga ohanglar qa'ridan boshpana izlaydi.

O'zbek xalqining boy musiqiy merosi, jumladan, cholg'u asboblarining paydo bo'lish tarixi, ularning ilmiy-nazariy hamda amaliy tomonlarini atroflicha tadqiq etish borasida ancha ishlar amalga oshirilgan. Shuni ta'kidlash joizki, bu masalaga musiqiy sozlarimiz merosini ilmiy o'rganish nuqtai-nazaridan yondashadigan bo'lsak, mazkur sohada bajarish lozim bo'lgan ishlar hali ancha.

Chunonchi, qadimiyo sozlarning unutilayotgan turlarini Sharq allomalari risolalari asosida o'rganib, ularni qayta tiklash, har bir soz uchun milliy musiqamizning an'anaviy va akademik ijro uslublari haqida mukammal o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Bugungi kunga kelib, xalqimizning asriy qadriyatlarini, jumladan, musiqiy qadriyatlarni o'rganish, tiklash va rivojlanirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. San'atimiz katta rivojlanish yo'liga kirdi. Ayniqsa, san'at oliygohlari talabalari orasida xalq ashulalari va kuylarini o'rganish, milliy sozlarimizda chalish istagi ortib bormoqda.

Dutor – Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan chertib chalinadigan torli sozlardan hisoblanadi. U o'zining yaratilishi va taraqqiyot bosqiida tarixiy shakllanish jarayoniga ega. Shu bilan birga, u o'ziga xos shakl va ovoz xususiyatiga boy sifatlari hamda nafis tabiat, nozikligi bilan dirlrabo cholg'udir.

Dutorda ijro qilingan cholg'u kuylari va u jo'rligida aytilgan ashula ohanglari zamirida Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalari Lutfiy, Navoiy, Atoiy, Bobur, shuningdek, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira va boshqalarning ijodidan ilhom olgan lirik – falsafiy mazmun yotadi.

Yozma manbalarda dutor birinchi marta XV asrda Al Husayniyning buyuk o'zbek klassik shoiri va g'azal mulkining sultonı Alisher Navoiyga bag'ishlab yaratgan "Musiqa ilm va amaliyot qonuni" – risolasida dutor alohida tilga olinadi. Unda dutorning xalqimiz orasida tutgan o'rni va undan foydalanish yo'llari bayon

qilinadi. Bu esa Markaziy Osiyo madaniyatining taraqqiy etish davriga to'g'ri keladi. XVII asrda Darveshali qalamiga mansub "Risolai musiqiy" asari yaratildi. Olim bu kitobida barcha cholg'u asboblari qatori dutor to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shu bilan bir qatorda, mashhur dutor mashshoqlari haqida ham so'z yuritadi.

Dutor hayotimizga azaldan teran singib ketgan musiqa asboblaridan hisoblanadi. Bu cholg'udan, asosan, saroy muhitida ko'proq foydalanilgan. Saroy ichkarisida o'tkazilgan maxsus davralarda san'atsevar ayollar ashula aytib, raqsga tushib ko'ngil xushlaganlar. Shu bois, dutor ko'proq ayollar tabiatiga mos bo'lgan sozdir. Dutor takrorlanmas, o'ziga xos mayin, shirali ovozga ega cholg'u asbobi bo'lib, tovushining rang-barangligi va boyligi xalqlarning turmush tarzi, madaniyati qirralarini o'zida mujassam etib, Sharq xalqlari musiqiy tafakkurining nafis jilolarini o'zida ham aks ettirgan cholg'udir. U o'zbek xalq musiqa cholg'u asbollarining malikasidir.

Ma'lumki, O'zbekiston musiqa madaniyatida ko'chmanchi va o'troq xalqlar madaniyatining an'analari xususiyatlari jamlangan. Bunda dutor sozi asosiy rol o'ynagan. O'zbek sozlari haqida ilk tadqiqot muallifi B.M.Belyayev fikricha, dutor ko'chmanchilarining ikki torli sozi va o'troq aholi tanburi sintezidan tashkil topgan. Dutor dastasining uzunligi, pardalar, ayniqsa, birinchi vaziyat (pozitsiya) pardalarining katta masofada joylashganligi tanburning ta'siridan guvohlik beradi.

XX asrning boshlarida dutor to'g'risida qiziqarli ma'lumotlarni birinchilardan tadqiq qilgan olim Abdurauf Fitrat bo'lgan u o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida dutorning tuzilishi, tarkibiy qismlari, tovushqatori hamda musiqa amaliyotidagi o'rni haqida qimmatli firklarni bildiradi. Jumladan, "Shashmaqomning sho'bachalarini, uforlarini hamda butun el kuylarini dutor bilan chalish mumkindir" -deb yozadi.

Dutor (forscha – ikki tor) – o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan torli-tirnama cholg'u asbob. Dutor kosa, dasta va bosh qismidan iborat. Uning kosasi o'yma yoki 8-10 ta mayda yog'ochlar birlashmasidan egiltirilib yasaladi. Kosaning usti yelimlab qo'yilgan taxtachali qopqoq bilan yopiladi. Qopqoqning o'rtasida kichkina doira shaklida teshikcha bo'lib, u tovush xonasi deb aytildi. Dutor dastasi olma yog'ochidan yasaladi va unga 13 – 14 ichak parda bog'lanadi. Dastaning yon tomonlari chap qo'lning erkin harakat qilishi uchun silliqlanib pardozlanadi. Dastada 20 dan 24 tagacha parda joylashgan. Dutorning umumiyligi 1200-1300 mm. Ayrim turlari 750-800 mm. Dutor dastasining yuqori qismida quloqlar o'rnatilgan bo'lib ular torlarni sozlash uchun xizmat qiladi. Torlar quloqlarga o'ralib buraladi. Agar tor tarang qilib tortilsa, tovush balandlashadi va aksincha tor bo'shashtirilsa tovush pasayadi.

Ipakdan qilingan ikki tor oralig'i kvartaga sozlanadi. Bu soz kerak bo'lganda ijrochi va ashulachi xohishi bilan turlichcha balandlikda almashtirish mumkin. Dutor sozlar ichida ikki tovushli musiqa asarlarini erkin ijro etuvchi yagona cholg'udir.

1935 yildan boshlab A.I.Petrosyans usta Gyunter bilan hamkorlikda an'anaviy o'zbek dutorini ta'mirlash (yangilash) ga kirishdi. Natijada chalish uchun juda qulay barcha o'zbek milliy sozlari qatorida yangi takomillashgan nota bilan ijro qilinadigan musiqiy asarlarni ijro etishga moslashgan dutorlar oilasi yaratiladi.

Dutorlar guruhiga: prima dutori, tenor dutori, alt dutori, bas dutori va kontrabas dutorlari singari sozlar yaratildiki, bu cholg'ular yakka hamda o'zbek xalq cholg'u ansambl va orkestrlari tarkibida ko'p ovozli musiqa

asarlarini ijro etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Demak, qayta ishlangan dutorlarning pardalari ko'paytirilib ovoz diapazoni ancha kengaytirilgan.

O'tmishda ijrochilarimiz tomonidan chalingan dutor hozirgidek tut daraxtidan, torlari esa, ichakdan tayyorlangan. Dutorning turli namunalari mavjud. Ayollar dutori, erkaklar dutoridan bir ozgina farq qiladi, uning kosaxonasi kichikroq va dastasi kaltaroq bo'lib unda metall sim ishlatilmagan. Shuning uchun dutor o'ta muloyimlik bilan chalinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi", 1997. -384 b.
2. Abdullaeva S. Sovremennie azarbaydjanskie muzikalnie instrumenti. – Baku: Azerneshr, 1984. – 96 str.
3. Boltazoda S.S Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular Toshkent: "Musiqa", 2008. – 136 bet.
4. Belyaev V.M. Muzikalnie instrumenti Uzbekistana. – M.: Muzgiz, 1933. – 131 str.
5. Vizgo T. Muzikalnie instrumenti Sredney Azii. M.: Muzika 1980. -190 bet.
6. G'afurbekov T. Saylanma 70 "Musiqa" nashriyoti. Toshkent. 2009. – 176 bet.
7. Karomatov F. Uzbekskaya dombrovaya muzika. – T.: Goslitizdat, 1962. – 260 str.
8. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of" Buchor" Tune //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – C. 118-122.
9. 9. Yarashev J. T. " BUKHORCHA" AND" MAVRIGI" SONG CLASSES-AS A NATIONAL AND NOETIC SPIRITUAL VALUES OF THE UZBEK NATION //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2013. – №. 39. – С. 114-117.
10. Ярашев Ж. Т. SONGS OF COMPOSITE CYCLES OF" BUHORCHA" AND" MAVRICH" AS MUSICAL VALUES FOR UZBEK PEOPLE //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – №. 2. – С. 93-95.
11. Ярашев Ж. Т. Музыкальная терапия //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 641-647.
12. Ярашев Ж. Т. Нравственное и эстетическое воспитание учащихся в сотрудничестве с семьей и школой //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 42-44.
13. Ярашев Ж. Художественно-эстетические особенности мелодии «Бухорча» //Восточноевропейский научный журнал. – С. 118-122.
14. Uzakova M. et al. Pedagogical Views of Modern Enlighteners on Art and Music //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 56-60.
15. Tourayevich Y. J., Uktamovna M. D. METHODS OF DEVELOPING STUDENT VOCAL DYNAMIC SENSE IN MUSIC CULTURE CLASSES //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
16. Turaevich Y. J., Botirovna K. M. Creativity in the development of music and pedagogical activity in higher education //Thematics Journal of Arts and Culture. – 2022. – Т. 6. – №. 1.